

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2024/6-SON  
ILOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>A.M.Maxmutaliyev</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kuch jismoniy sifati va uni tarbiyalash uslublari.....	111
<b>G.S.Sidiqova</b>	
Hozirgi kun jismoniy madaniyat yo'riqchilarining klassifikasiyası .....	118
<b>X.X.Xaydaraliyev</b>	
O'quv mashg'ulotlari davomida talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirish metodikasini takomillshatirish.....	123
<b>R.A.Hamroqulov</b>	
Salomatlik testi talab va me'yorlarini topshirish bo'yicha mashg'ulotlarni tashkillash .....	128
<b>E.I.Allomov</b>	
Maktab o'quvchilarini harakat faoliyatining yoshga xos me'yorlari .....	134
<b>T.A.Eshimov</b>	
Kasb - hunar maktablari o'quvchilarining jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarligi ko'rsatkichlari tahlili.....	141
<b>Sh.M.Robilova</b>	
O'quvchi-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash samaradorligi .....	147
<b>Q.M.Xakimov</b>	
Yosh voleybolchilarda jismoniy ish qobiliyati va uning funksional komponentlarini shakllantirish masalalari.....	150
<b>Sh.V.Djalalov</b>	
O'rta yoshdagagi qizlarda egiluvchanlikni rivojlantirish metodikasi (5–9-sinflar) jismoniy tayyorgarlikning tabaqaqalashtirilgan tizim asosida.....	155
<b>X.M.Sotvaldiyeva</b>	
Ingliz tili darslarida og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish usullari .....	159
<b>S.I.Quziyev</b>	
Ingliz tilini o'qitishda smart ta'limgan texnologiyalari orqali virtual turizmni takomillashtirishning pedagogik usullari .....	162
<b>N.K.Ergasheva</b>	
Methodology and outcomes of english language teaching .....	168
<b>M.Axmedova</b>	
Maxsus yo'nalish talabalarining eshitish ko'nikmalarini rivojlantirishda autentik materialarning roli.....	172
<b>G.Astonova</b>	
Germaniyada ta'limgan tizimini boshqarishning hududiy xususiyatlari.....	176
<b>G.R.Astonova, M.M.Kaharova</b>	
Germaniya va O'zbekiston ta'limgan tizimida o'xshash va farqli jihatlar .....	179
<b>N.A.Abduvaliyeva, U.Sh.Abduvoxidova</b>	
Nutq o'stirishning metodik usullari .....	183
<b>M.S.Ro'ziboyeva</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida bag'rikenglik dunyoqarashini tarbiyalash: nazariy va amaliy yondashuvlar .....	188
<b>N.N.Nabiyeva</b>	
Triz texnologiyasi vositasida ta'limgan oluvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish mazmun va mohiyati .....	193
<b>D.I.Asqarova</b>	
Oliy ta'limgan tizimidagi islohotlar yangicha yondashuvlar .....	197
<b>D.T.Yuldasheva</b>	
Maktabgacha yoshdagagi bolalar kognitiv faoliyatini rivojlantirishda neyropedagogikaning imkoniyatlari .....	202
<b>Y.A.Mirzaboyev</b>	
Nostandart masalalar orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida matematik kompetentlikni rivojlantirish metodikasi .....	206
<b>R.Sh.Sharofutdinova</b>	
Ko'zi ojiz o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishning pedagogik-psixologik, ijtimoiy xususiyatlari .....	210
<b>Sh.T.Mavlonova</b>	
Inkluyuziv ta'limgan o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatishning pedagogik-psixologik,	



**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING KUCH JISMONIY SIFATI VA UNI  
TARBIYALASH USLUBLARI**

**ФИЗИЧЕСКИЕ КАЧЕСТВА СИЛЫ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАС МЕТОДЫ ИХ  
ВОСПИТАНИЯ**

**PHYSICAL QUALITY OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS AND METHODS OF THEIR  
DEVELOPMENT**

**Maxmutaliyev Adxamjon Meliboyevich** 

Farg'ona davlat universiteti, Jismoniy tarbiya va sport o'yinlarini o'qitish metodikasi  
kafedrasi katta o'qituvchisi

**Annotatsiya**

*Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarining kuch-quvvat va jismoniy sifatlarini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan. Tadqiqotda bolalarning yoshga xos jismoniy rivojlanish xususiyatlari, kuch-quvvat sifatlarini shakllantirish metodologiyasi va pedagogik yondashuvlar chuqrur tahlil qilinadi.*

**Аннотация**

*Данная статья посвящена развитию силы и физических качеств учащихся младших классов. В исследовании дан глубокий анализ возрастных особенностей физического развития детей, методик формирования силовых качеств и педагогических подходов.*

**Abstract**

*This article is dedicated to the issues of developing strength and physical qualities of primary school students. The research provides an in-depth analysis of children's age-specific physical development characteristics, methodology for forming strength qualities, and pedagogical approaches.*

*This article is dedicated to the issues of developing physical strength and physical qualities of primary school students. The study provides an in-depth analysis of children's age-specific physical development characteristics, methodology.*

**Kalit so'zlar:** Boshlang'ich sinf o'quvchilar, jismoniy tarbiya, kuch sifati, jismoniy rivojlanish, motorika, jismoniy tarbiya metodikasi, sog'lom turmush, fizik tayyorgarlik, o'smir organizmi, jismoniy mashqlar.

**Ключевые слова:** Ученики начальных классов, физическое воспитание, физические качества, физическое развитие, моторика, методика физического воспитания, здоровый образ жизни, физическая подготовка, организм подростка, физические упражнения.

**Key words:** Primary school students, physical education, physical qualities, physical development, motor skills, physical education methodology, healthy lifestyle, physical training, adolescent organism, physical exercises.

**KIRISH**

Jismonan barkamol avlodni shakllantiruvchi jismoniy madaniyat mutaxassisini tayyorlash ta'lim tizimiga zaruriy talablarni qo'yadi. Uning tagzamini esa umumiyl o'rta ta'lim tizimida qo'yildi. Xalqimiz azal – azaldan farzandlarining jismoniy va ma'nnaviy jihatdan sog'lom bo'lib, jamiyatda munosib o'rin egallashini oliy maqsad deb biladi. Ana shu ezgu niyat tom ma'noda o'zining ijobatini topdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan, Yangi O'zbekiston taraqqiyotining strategiyasi ishlab chiqildi. Unda, "Jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish aholi salomatligini taminlashda muhim omildir" deb baho berilgan. Shu bilan bir qatorda 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 67-maqсадиди; "Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanadigan fuqarolarining sonini oshirish" ko'rsatilib, jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanadigan aholi sonini 2026 – yilda 33 foizga chiqarish belgilangan. Ayniqsa prezident Shavkat Mirziyoevning joriy yilning 1-apreldagi ommaviy sportni rivojlantirishga bag'ishlangan mahsus yig'ilishida, 7 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlarni ommaviy sport bilan shug'ullanuvchilar sonini 6 milionga etkazish, 2022-yil 20-dekabrda

O'zbekiston xalqiga, Oliy majlis deputatlariga, Senatorlarga murojatida: "Turli yoshdagagi kishilar uchun jismoniy mashqlarni o'rgatish ishlari yo'q"ligi to'g'risida alohida ko'rsatmalar berilda. Mamlakatni 2023 yilgi taraqqiyot strategiyasi dasturida, jismoniy tarbiya va sportga nixoyatda keng o'rinn berildi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILII VA METODLAR**

Sungi yillarda ta'lif tizimida o'quvchi-yoshlarni jismoniy tayyorgarlik va jismoniy rivojlanish masalalarini hamda aholini jismoniy tarbiyasi bo'yicha bir qator muammolarni O'zbekiston Respublikasining etakchi mutaxassislari, xorijiy ko'zga kuringan tajribali pedagoglar, ko'pchilik olimlar tomonidan (V.K.Balsevich, O.V.Verxoshanskiy, A.A.Gujalovskiy, L.P.Matveev, F.A.Kerimov, Sh.X.Xankeldiev, L.R.Ayrapetyans, R.Salamov, T.S.Usmonxo'jaev, K.Maxkamjonov, F.Xodjaev, K.D.Yarashev va boshkalar) nazariy jihatdan o'rgangan.

Ba'zi tadqiqotchilar (D.D.Sharipova, G.V.Goshupkin, N.B.Bernshteyn, R.S.Salamov, A.T.Sodikov, B.G.Boyboboev, V.V.Semenov, T.S.Usmonxo'jaev, G.Y.Fokin Sh.X.Xankeldiev, V.P.Filin, V.I.Platnov va boshkalar)ning ilmiy izlanishlarida turli xil sport mashklari umumiyligi texnika asoslariiga o'rgatishning maksadga muvofikligi va uning imkoniyatlari masalasi tadqiq qilingan hamda ular jismoniy tarbiya va sportni turli qirralarini ochishga harakat kilganlar.

### **NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Maktab ta'lif davri (7-10 yosh)da salomatlik va to'laqonli jismoniy rivojlanishning poydevori qo'yiladi, odatlar, fe'l-atvor xususiyatlari shakllana boshlaydi. Bu davr zarur harakat ko'nikmalarini egallash hamda ularni mustahkamlash uchun ayniqsa qulay vaqtidir. Tabiiyki, bolaning rivojlanishi atrof muhitdagi shart-sharoitlar, ularning butun hayoti, tarbiyasi, xususan, jismoniy tarbiyasining qanday tashkil etilishiga bog'liq.

Maktab yoshidagi bolalar tez o'suvchi, ularning harakat imkoniyatlari cheklangan bo'ladi. Tana o'lchamlari nisbati sezilarli o'zgarib boradi. Organizmning chidamliligi ortadi. Asab tizimining rivojlanishi yasli yoshidagi bolalarniga qaraganda ancha yuqori darajada bo'ladi. Shunisi diqqatga sazovorki, qo'zg'alish jarayonlari tormozlanish jarayonlardan ustunlik qiladi. Kichik maktab yoshidagi bolalar bir xil harakatlardan tez charchaydilar, ularning diqqati nihoyatda beqaror, chalg'ishlari oson bo'ladi. Shuning uchun mashg'ulotlar davomida ularga uzoq muddatli, bir maromli, kuchiga mos kelmaydigan yuklamalar bermaslik kerak, chunki bu ularning haddan ortiq charchashiga olib keladi. Bu yoshda xususiyati turlicha o'yin va mashqlarni navbatlab qo'llashning ko'zda tutilishi juda muhimdir. Shovqin-suron bilan kechadigan harakatli o'yinlarning o'rmini tinch, osoyishta o'yinlar egallashi lozim. Tayanch-mushak apparatinining nisbatan zafligi, mushaklarning tez charchashga moyilligi tufayli maktab yoshidagi bolalar mushaklarini uzoq muddat zo'rqtirishga hali qodir emaslar. Yurak-qon tomir tizimi bolalarda o'sayotgan organizmning talablariga yaxshi moslashgan bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining uzoq vaqt davomida o'tirish holatida bo'lishi, darslar oralig'idagi faol dam olishning qisqaligi, qisqa vaqt ichida toza havoda bo'lishlari, yildan-yil sayin harakat faolligini pasayishi, kam uxlashi – mana shularning hammasi bolalarning jismoniy rivojlanishiga, jismoniy tayyorgarligiga va aqliy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ba'zi bir qishloq maktablarida jismoniy madaniyatning darslari Boshlang'ich sinflarda yuqori usuliy darajada tashkil qilinmaydi va o'tkazilmaydi. Buning ta'sirida o'quvchilar o'zlariga etarli darajada bilish, ko'nikma va malakalarni egallay olmaydi.

Bunday o'tkazilgan darslarning amaliyat uchun hech qanday samarasi yo'qdir. Demak, bolalar muhim vaqtlarini bekorga sarflaydi va natijada ularning sog'lig'ini mustahkamlashga sust ta'sir etadi.

Respublikamiz mustaqillikka erishganidan so'ng ta'lif tizimi isloh qilindi va yurtimizni mustaqil va mustahkam oyoqqa turib olishi uchun hamma soha bo'yicha birgalikda hamdard, hamnafas, hamfikr bo'lib ishlashni talab qiladi.

Bu esa bizlardan, ya'ni jismoniy tarbiya va sport sohasida ishlovchi mutaxassislardan ulkan jihat bilan mehnat qilishimizni taqoza etadi.

Ilmiy ma'lumotlarga qaraganda hafta mobaynida o'tkazilayotgan 2 soatlik jismoniy tarbiya darslari o'quvchilarning harakat faolligini 11% inigina rivojlantira olishi mumkin ekan.

Hozirgi kunda maktabdagi sog'lom degan bolalarning ko'pchiligi o'qish davomida turli kasalliklarga chalinadilar. Shulardan 40% idan ziyodrog'i asoratli, 63% idan ortiqrog'i qaddi-qomat rivojlanishida oqsamoqda, taxminan 12% o'quvchi kamqonlik kasalliklariga duchor bo'lmoidalar.

**PEDAGOGIKA**

Ammo sog'lom avlod tarbiyasini keng jamoatchilikning ishtirokisiz amalga oshirib bo'lmaydi. Olimlarning tasdiqlashlaricha, kelajak avlodning sog'lom bo'lishi 50% turmush tarzida sog'lomlashtirish turmush tarziga, 15-20% ijtimoiy va tibbiy sharoitlarga, irlisi va shularga o'xshash omillarga bog'liq ekan.

Inson kuchi tashqi qarshiliklarni kuchlanish orqali engish qobiliyat tushuniladi. Maktablar uchun jismoniy tarbiya dasturida, birinchi sinflardan boshlab bolalarining kuch tayyorgarligi ko'zda tutilgan.


Mehnat va sport faoliyati jarayonida, turmushda kuch chidamliligi va portlash kuchi eng ko'p ahamiyatga ega. Kuchning bu turlari ro'yobga chiqishi bilan inson har qadamda to'qnash keladi (masalan: og'ir atletikada, sport gimnastikasida, kurashda va boshqalar) maksimal kuchni mushaklar qisqa-rishlarining yuqori tezligi bilan birga qo'shib olib borishda (uloqtirish, greble va boshqalar) bajarilishi vaqtida foydalaniлади. Insonni absolyut nisbiy kuchni farqlash kerak. Ya'ni shaxsiy og'irligining 1 kg ga to'g'ri keladigan kuchni miqdori u tayyorgarligi bir xilda bo'lgan, ammo har xil og'irlidagi atletikachilarining kuchlarini taqqoslash uchun aniqlanadi.

Kuch mashqlarini bajarish vaqtida mushaklar uch xil tartibda ishlashi mumkin:

1. O'z uzunliklarini (statistik izometrik) o'zgartirmaydigan rejim.
2. O'z uzunliklarini qisqartirib (pryudolevayushiy, miometrik) rejim.
3. Uzayib yon beruvchi (pliometrik) rejim.

Chunonchi, masalan oyoqlar to'g'ri ko'tarilgan vaqtida og'irlikda to to'g'ri burchakgacha mushaklar faoliyatining barcha uchala tartibi uchrashadilar. Mushak ishining uzunligini qisqartirishda – oyoqlarni ko'tarish, statistik ish – oyoqlarni  $90^{\circ}$  burchak ostida ushlab turish; Mushaklarni uzayishi – dastlabki holatga qatish oyoqlarni tushirish. O'quvchilar jismoniy tarbiyasida umumiy va maxsus kuch tayyorgarligi amalga oshiriladi.

Umumi kuch tayyorgarligi\_insonning mehnat faoliyatiga tayyorligi va jismoniy rivojlanishi uchun ahamiyatga ega bo'luvchi barcha asosiy mushaklar guruxlarining garmonik rivojlanishiga qaratilgan.



1-rasm

Maxsus kuch tayyorgarligining maqsadi faoliyatining tanlangan turiga tadbigan musobaqalashuvchi harakatning texnikasi bilan mushakning muvofiq guruxlari kuchining birga qo'shib olib borilishining yuzaga chiqishi jismoniy sifatlarning rivojlanishidir.

Inson kuchini o'lchash uchun har xil konstruksiyalardagi dinamometrlar qo'llaniladi. Eng ko'p qo'llanishni panja va (gavda) bel umurtqa dinamometri bilan aniqlanadi. Bu ko'satikichlar o'lchamlar majmuasiga kiradi, ular bo'yicha o'quvchilarning jismoniy rivojlanishi to'g'risida mulohaza yuritadilar (1-jadval).

## 1-Jadval

O'quvchilarda panja va gavda dinamometrining ko'rsatkichlari (V.M.Bistrov va V.P.Kiselev bo'yicha)

Yoshi	Panja kuchi (kg da)		Gavda kuchi (kg da)	
	bolalar	qizlar	erkaklar	ayollar
7	11	-	28	23
8	12	12	29	25
9	16	13	32	30
10	16	14	43	40

Biroq bu ikkita ko'rsatkich ayrim mushak guruxlarining kuchi to'g'risida zaruriy axborot bermaydi.

Maktab o'quvchilarida ayrim mushak guruxlarining kuchini aniqlash uchun gavda dinamometrining ayrim unsurlari moslamalardan taglik uchun sirtmoqlar bilan to'ldirib foydalilanildi. Masalan: gavdaning mushak o'quvchilar kuchini aniqlash vaqtida o'quvchilar gimnastika devoriga undan 1 m masofada orqa bilan erga o'tiradilar. Oyoqlar va bel mustahkamlanadi. Ko'krakka sirtmoqli kamar kiyiladi, unga dinamometr biriktililadi. Ayni vaqtida taranglashilishlarni sezmasligi, osilib turmasligi uchun gimnastika devoriga barcha tizim bog'lab qo'yiladi.

Taklif qilingan uslub bilan son, boldir, tovonlar, elka oldi va elkaning yozuvchi va o'quvchini aniqlash mumkin. Maktab o'quvchilarida ayrim mushak guruxlarning kuchi bo'yicha yoshi – jinsiga qarab o'tacha ma'lumotlar 1 va 2-jadvallarda keltirilgan.

## 2-jadval

Sport bilan shug'ullanmaydigan bolalarda mushak guruxlarining absolyut kuchining ko'rsatkichlari (F.G.Kazaryan bo'yicha)

Yoshi	Muskul kuchi (kg da)				
	Yelk a	Gavda	Son	Boldirlar	Tovonlar
	Bukil; yozi l.	Bukil.; Yozil.	Bukil.; Yozil.	Bukil.; Yozil.	bukilish
	7,0, 9,7	18,6,42 ,6	7,2,32, 7	5,1,12, 9	20,1
	8,5, 12,4	21,9- 51,1	8,4- 38,9	6,4,17, 1	24,7
	8,8- 13,0	23,5- 55,9	9,2,48, 6	7,6,18, 4	28,8
1	12,0 -18,1	35,4- 72,9	14,6,58 .8	10,3,25 .3	38,1
2	13,1 .18,7	33,2,74 .3	13,2,64 .3	8,9,24, 9	39,9
3	14,4 .23,0	39,1,90 .4	14,8,73 .9	11,0,31 .1	45,1
4	21,3 .31,8	51,1,11 2,7	22,7,94 .1	15,3,48 .5	59,4
5	20,7 .33,2	56,1,12 4,3	28,1,10 7,7	18,4,47 .6	65,4
6	25,4 .41,6	49,6,14 1,2	34,2,12 0,9	23,1,66 .2	77,9
7	34,4 .46,3	77,5,16 1,0	43,6,13 9,0	28,8,85 .0	91,5

Kuchning dinamik va portlash, shuningdek kuch chidamliligin o'lchash uchun amaliyatda xilma-xil nazarat mashqlaridan foydalilanildi. Tezkorlik – kuch sifatlarini aniqlash uchun uzoqlikka har xil og'irlikdag'i (tosh, chiralar, yadro va to'ldirilgan to'plarni uloqtirish) kabilardan foydalilanildi.

➢ Har xil Boshlang'ich holatlarda (turib, yotib) qadoq toshlar, shtangalarni ko'tarish, tortilish, tayanib yotishda siqish yoki qo'l bilan to'ldirilgan qopchanini;

➢ Kuch chidamliliginini aniqlash uchun topshirilgan balandlikka sakrash bo'yicha joyida sakrash;

➢ Maksimal kuchini aniqlash uchun oxirgi og'irlikni ko'tarish;

Maktab o'quvchilarini kuchini tayyorlash maqsadida umuman barcha mushak tizimlarining yoki ayrim mushak guruxlarining kuchi rivojlanishiga ko'maklashuvchi maxsus mashqlardan foydalilanildi.

**Sport bilan shug'ullanmaydigan qizlarda har xil mushak guruxlarining absolyut kuchining ko'rsatkichlari (V.T.Chichikin bo'yicha)**

yoshi	Mushakning kuchi (kg da)								
	Yelka		gavda		son		boldirlar		tovonlar
bukish	yozish	bukish	yozish	bukish	yozish	bukish	yozish	bukish	
8	7,2	7,8	9,3	38,5	7,0	31,0	6,0	1,9	16,9
9	8,0	9,0	10,0	40,3	7,4	34,8	5,8	15,6	22,9
10	8,0	10,9	11,9	47,3	9,5	40,8	7,3	18,8	30,6
11	10,3	14,0	14,6	57,2	10,8	49,6	7,4	24,4	42,5
12	12,5	15,6	16,1	66,2	13,7	58,4	9,3	30,0	42,6
13	13,0	18,4	20,3	74,4	12,1	66,5	10,4	30,0	45,0
14	17,7	21,2	21,8	81,1	18,0	68,7	13,8	39,2	51,1
15	16,9	22,3	19,9	84,2	19,6	72,6	14,3	40,8	56,0
16	17,3	21,7	21,3	88,1	19,9	78,9	15,9	43,2	62,3
17	18,8	22,0	24,1	96,9	32,5	87,1	16,7	44,5	68,7

Portlovchi va maksimal kuchni rivojlanishining asosiy vositalari har xil turdag'i og'irlidagi inventar va buyulardan gantellar, to'ldirilgan koptoklar, qum bilan to'ldirilgan qopchalar, shtangalar, amortizatorlar bilan, blokli uskunalar) bilan bajariladigan mashqlardir.

Malollik siz, barcha shaxsiy tanasidan foydalanayotib sheringining qarshiligi bilan (tortilish, tayanishda siqish, cho'nqayib o'tirish, qup marta sakrash va boshqalar) qo'llaniladi.

Har xil kuch imkoniyatlarining rivojlanishiga ta'sir o'tkazishning samaradorligi kuch yuklamalarini rejalashtirish bilan. Chunonchi, masalan, katta bo'l'magan og'irlik bilan (20 dan to 60 gacha maksimal mumkinligi) va takrorlashlarning katta miqdori bilan cho'qqayib o'tirish amalga oshirilsa, asosan kuch chidamliligi rivojlanadi; agarda bu mashq tezlik tempda bajarilsa, u holda "portlovchi kuch"ning rivojlanishi ro'y beradi. O'sha mashqni oxirgi va qariyib oxirgi yuklamalar bilan takrorlashlarning kam miqdori bilan bajarilsa, asosan mutloq kuchning rivojlanishiga ko'maklashadi. Shuning uchun bolalarning kuch tayyorgarligi vaqtida uning u yoki bu uslublardan to'g'ri foydalanish juda muhimdir.

Jismoniy tarbiyaning amalyotida mushak kuchi rivojlanishining quyidagi uslublari eng ko'p tarqalgan:

Maksimal kuchlanish maksimal qarshilik ko'rsatishni bartaraf etish zaruriyat bilan bog'langan topshiriqlarni bajarishdan iborat: oxirgi og'irlidagi shtangani ko'tarish cho'zilgan qo'llardan og'irlashtirilganni ushlab olish og'irlashtirilgan yukni tortish va boshqalar.

Qarshilik ko'rsatish miqdorini o'lhash uchun TM (takroriy maksimum) ko'rsatkichidan foydalaniladi. Chunonchi, masalan, 8 TM og'irlashtirilgan miqdor deyilganda mashqlantiruvchi og'irlashtirishni tushunmoq kerak, ular bilan shug'ullanuvchilar bir yondashuvda 8 tadan ko'p bo'l'magan takrorashlarni bajarishlari mumkin.

Malollik keltirmaydigan barcha shaxsiy tanasidan foydalanayotib (sheringining qarshiligi bilan tortilish, tayanishda siqish, cho'nqayib o'tirish, ko'p marta sakrash va boshqalar). Mashak massasining o'sishisiz mushak kuchining rivojlanishi dam olishning intervallari 20-30 s dan to 2-3 daqiqa gacha bo'lishni talab qiladigan, bajariladigan mashqning xarakteri bilan (maxalliy yoki umumiy ta'sir o'tkazish) va qarshilik ko'rsatishning miqdori bilan aniqlanadi. Og'irlashtirish bilan barcha mashqlar to'la amplituda bilan bajarilishi kerak. Har bir yangi kuch mashqining boshlanishidan oldin ishlovchi muskul bilan tortilish mashqini bajarish maqsadga muvofiqidir.

Mashqlantirilganligining darajasiga qarab sportchining kuch yuklamalariga moslashishi ro'y beradi; shuning uchun kuch ishining dasturini almashtirish kerak. Aks holda natijalar o'sishi bo'l'maydi. Kuch yuklamalari dasturini qo'llash vaqtida quyidagi metodik usullardan foydalaniladi: Ayni bir xil mushak guruxlarini kuchning rivojlanishi uchun xilma-xil mashqlarni qo'llash; qarshilik ko'rsatishning miqdori o'zgarishi, mashqlar va seriyalar miqdori, ayrim yondashuvlar o'rtaida dam olishning intervali, bajariladigan mashqlar izchilligi, matabda fizkultura darslarida kuch tayyorgarligining davom etishi 10-12 daqiqa gacha etishi mumkin, uydagi mashq'ulotlar sharoitida 20-30 daqiqa.

### XULOSA

1-4- sinf o'quvchilarni jismoniy tarbiyalash tizimida milliy harakatli o'yinlardan foydalanish, yosh va jinsni hisobga olgan holda jismoniy sifatlarni ustuvor rivojlanish tamoyili bo'yicha ularni aniq tabaqlashtirilmay amalga oshirilmoqda.

2.1-4- sinf o'quvchilarning jismoniy sifatlarni rivojlanish darajasini tavsiflovchi ko'rsatkichlarning yosh o'zgarishlariga xos xususiyatlarni tahlil etish natijasida quyidagi qonuniyatlar aniqlandi:

**PEDAGOGIKA**

- jismoniy tayyorgarlik va jismoniy rivojalnish ko'rsatkichlari bo'yicha 7 yoshli o'g'il va qiz bolalarda 3x10 mokkisimon yugurishda tana uzunligi, 150 gr.li tennis koptogini nishonga urishda o'pkaning tiriklik sig'imi, o'ng va chap qo'l kuchlari oralarida katta bog'lanish borligi ma'lum bo'ldi.

- 10 yoshli o'g'il va qiz bolalarda arg'amchidan sakrash, turgan joydan uzunlikka sakrash, 150 gr.li tennis koptogini nishonga urish, 150 gr.li tennis koptogini uloqtirish, o'pkaning tiriklik sig'imi, o'ng va chap qo'l kuchlari rivojlanganligini kuzatildi. Bu esa tadqiqot natijalarining samaradorligi, bolalar sog'ligiga katta ta'sir o'tkazishini ko'rsatdi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

5. "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlashtirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5924. 24.01.2020. 1.2.3.4.5.-ilovalar.

6. "Sog'lom turmush tarzini keng tadbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6099 son. 30.10.2020.

7. Xankeldiyev Sh.X., Abdullayev va boshqala. "Jismoniy mashqlar bilan shug'ullanizsh mashg'ulotlari". Uslubiy qo'llanma."Farg'ona" nashriyoti, 2011.257 s.

8. Abdullayev A., Rasulov R., Xasanov A., Umumiyl o'rta va kasb-xunar ta'limi tizimlarida jismoniy tarbiyada sinfdan tashqari ishlar.T. 2009 y.

9. Konkeldiyev Sh, Abdullayev A. va boshqalar. Sog'lom turmush tarzi jismoniy madaniyati o'quv qo'llanmasi. "Farg'ona" nashriyoti, 2010.

10. Konkeldiyev Sh, Abdullayev A. va boshqalar. Kasb-hunar kollej lari o'quvchi yoshlarining sog'lom turmush tarzi jismoniy madaniyati "Farg'ona" nashriyoti, 2011.

11. Abdullayev A., Xankeldiyev Sh. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik (3-to'ldirilgan nashri). Farg'ona -2021. "Poligraf Super Servis" MCHJ nashryot matbaa bo'limi" sah. 476.